



## Godonims and their lexico-semantic groups

Nargiza SATTAROVA<sup>1</sup>

Andijan State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

#### **Article history:**

Received July 2024  
Received in revised form  
10 August 2024  
Accepted 25 August 2024  
Available online  
25 September 2024

#### **Keywords:**

onomastics,  
toponyms,  
urbanonym,  
hodonym,  
anthroponyms,  
cosmonyms,  
zoonyms,  
ornithonyms,  
lexical basis,  
onomastic unit,  
onomastic sphere.

### ABSTRACT

Toponyms represent a valuable linguistic and cultural-spiritual heritage for all countries, created by humanity over centuries. One of the key features of place names is that, in addition to designating specific locations, they also reflect social and historical information about the development of modern society, often rooted in the ideological views of the past. In this article, using the example of toponyms from the Andijan region, the composition, grammatical structure, and lexical-semantic groups of godonims (street names) are analyzed.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp294-298>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Godonimlar va ularning leksik-semantik guruhlari

### ANNOTATSIYA

#### **Kalit so'zlar:**

onomastika,  
toponimlar,  
urbanonim,  
godonim,  
antroponimlar,  
kosmonimika,  
zoonimlar,  
ornitonimlar,  
lug'aviy asos,  
onomastik birlik,  
onomastik ko'lam.

Joy nomlari barcha mamlakatlarning asrlar davomida insoniyat tomonidan yaratilgan eng katta til va madaniy-ma'naviy boyligi sanaladi. Joylarga qo'yilgan nomlarning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, bu nomlar o'zlari aks ettirgan manzillarni atash bilan birga, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar asosida bugungi jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy va tarixiy ma'lumotlarni aks ettirishi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada godonimlarning (ko'cha nomi) tarkibi, grammatik qurilishi, ularning leksik-semantik guruhlari Andijon viloyati joy nomlari misolida tahlilga tortilgan.

<sup>1</sup> PhD, Senior Lecturer, Department of Uzbek Language and Literature, Andijan State Pedagogical Institute.

## Годонимы и их лексико-семантические группы

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

ономастика,  
топонимы,  
урбаноним,  
годоним,  
антропонимы,  
космонимика,  
зоонимы,  
орнитонимы,  
лексическая основа,  
ономастическая единица,  
ономастическая сфера.

Топонимы представляют собой величайшее языковое и культурно-духовное наследие всех народов, созданное человечеством на протяжении веков. Одной из ключевых особенностей географических названий является то, что они не только обозначают определенные места, но и содержат социальную и историческую информацию о развитии общества, отражая идеологические взгляды прошлых эпох. В данной статье на примере топонимов Андижанской области проводится анализ состава, грамматической структуры и лексико-семантических групп годонимов (названий улиц).

### KIRISH

Ma'lumki, madaniyat insoniyat jamiyatlarining millat, xalqlarning davlat bo'lishi uchun eng asosiy omil hisoblanadi. Chunki millat – madaniyat haqida umumiy tushunchaga ega bo'lgan jamoalar tomonidan shakllantirilgan tuzilmadir. Madaniyatning yuragi tildir. Til madaniyatni ham yaratadi, uning avlodidan avlodga tashuvchisi vazifasini ham o'z zimmasiga oladi. Joy nomlari bir millatning umumiy madaniy tushunchasi doirasida tilning barcha nozik tomonlarini ifoda etuvchi nomlardir.

Bir necha fanlarning umumiy jihatlarini o'zida aks ettiruvchi joy nomlari geografik jarayonning o'zgarishini ko'rsatuvchi muhim belgilardan biri hisoblanadi. Joy nomlari ba'zan ramz, kuch, siyosiy pozitsiyani aks ettirishga, hukmron tuzumga qarshi turishga va uni qayta tiklashga asoslangan o'ziga xoslik sifatida ham ko'riladi.

Andijon viloyati godonimlarining leksik-semantik guruhlarini rang-barang va cheksiz. To'plangan materiallarga tayanib, quyidagi kichik mavzu guruhlarini ham ko'rib chiqamiz:

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

**Topogodonimlar.** Toponimiyada bir obyektning atoqli oti bilan boshqa bir obyekttni ham atash, ya'ni obyektlar nomining biridan ikkinchisiga ko'chishi, aniqrog'i, toponimdan toponim hosil qilish ma'lum darajada keng tarqalgan xarakterli hodisadir. Bunday nomlar negizida toponim yotsa, ya'ni toponimdan toponim hosil qilinsa topotoponimlar deb yuritiladi. Topotoponim toponimik negizdan hosil bo'lgan toponimdir. Toponimning yangi, qo'shimcha vazifaga o'tishi, asosan, onomastik konversiya – nomni funksional ko'chirish orqali yuz beradi. Quyida keltirilgan godonimlar toponimlar asosida hosil qilingan: *O'zbekiston ko'chasi, Toshkent ko'chasi, Movarounnahr ko'chasi, Andijon ko'chasi, Yangi Xorazm ko'chasi, Namangan ko'chasi, Farg'ona ko'chasi, Samarqand ko'chasi, Buxoro ko'chasi, Nukus ko'chasi, Qo'qon ko'chasi, Norin ko'chasi, Forish ko'chasi, Bag'dod ko'chasi, Sayxun ko'chasi, Tojmahal ko'chasi, Sardoba ko'chasi, Registon ko'chasi, Orol ko'chasi* kabi.

Topogodonimlarning hosil bo'lishida ikki xil jarayon yorqin ko'zga tashlanadi:

1. Yonma-yon, yaqin joylashgan obyektlarning nomi biridan ikkinchisiga o'tadi; Andijon shahar > Andijon ko'chasi kabi.

2. Aksincha, uzoq joylashgan obyektlarning nomi biri-biriga o'tadi. Topotoponimlarning hosil bo'lish qonuniyatlari hali toponimiyada yaxshi o'rganilgan emas. Bunga sabab nom ko'chishi murakkab jarayon bo'lsa, ikkinchidan, biridan ikkinchisiga o'tgan nomlarning qaysi biri dastlabki nom ekanini aniq belgilashni talab qiladi.

Andijon viloyati godonimlari tarkibida bitta nom (toponim)ning ko'p holda birdan ortiq obyektning nomi bo'lib kelishini ko'rsatdi. Biz to'plagan materiallar orasida 2,3,4,5 tagacha obyektga nom bo'lib kelgan godonimlar mavjud. Quyida ushbu nomlardan namunalar keltiramiz:

1. Shahar va ko'cha nomi: *Andijon ko'chasi* (Asaka), *Toshkent ko'chasi* (Shahrixon), *Xorazm ko'chasi* (Andijon) kabi.
2. Ko'cha va soy nomi: *Mazgilsoy ko'chasi* (Oltinko'l), *Chirtaksoy ko'chasi* (Paxtaobod), *Shaxrixonsoy ko'chasi* (Qo'rg'ontepa), *Soy ko'chasi* (Andijon), *Andijonsoy ko'chasi* (Qo'rg'ontepa) kabi.
3. Ko'cha va masjid nomi: *Devonaboy ko'chasi* (Andijon) kabi.
4. Ko'cha va tog' nomi: *Qorovultog' ko'chasi* (Xo'jaobod), *Balandtog' ko'chasi* (Jalaquduq) kabi.
5. Ko'cha va tepalik nomi: *Aziz Deva ko'chasi* (Qo'rg'ontepa), *Cho'qqitepa ko'chasi* (Andijon), *Dardoqtepa ko'chasi* (Qo'rg'ontepa) kabi.
6. Ko'cha va buloq nomi: *Sho'rbuloq ko'chasi* (Andijon), *Buloq ko'chasi* (Xo'jaobod), *Chimbuloq ko'chasi* (Xo'jaobod) kabi.
7. Mahalla va ko'cha nomi: *Yuzlar ko'chasi* (Asaka), *Yuksalish ko'chasi* (Qo'rg'ontepa) kabi.
8. Ko'cha va qadamjoy: *Xovuskonota ko'chasi* (Paxtaobod), *Zangibobo ko'chasi* (Andijon), *Boboxuroson ko'chasi* (Marhamat) kabi.
9. Ko'cha va jarlik: *Jarboshi ko'chasi* (Jalaquduq), *Jartepa ko'chasi* (Baliqchi) kabi.
10. Ko'cha va jo'ga, ariq nomi: *Sariqjo'ga ko'chasi* (Bo'ston), *Bo'zariq ko'chasi* (Asaka) kabi.

**Mavhum tushuncha ifodalovchi leksemalar yordamida.** Viloyat hududi godonimlarining asosiy hajmini mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlardan hosil bo'lgan nomlar tashkil qiladi. Joy nomlari hamma vaqt muayyan informativ-axborotlar manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, XX asr boshlaridan bir qator fanlar alohida ilm sohasi sifatida shakllanib, ularning muayyan tushuncha qoida va qonunlarini ifoda etuvchi ilmiy termin, so'z, iboralarni lug'aviy jihatdan izohlash ancha tartibga qo'yildi.

#### **TAHLIL VA NATIJALA**

Tilimizning lug'at zaxirasida atoqli otlar ma'lum bir o'rinni egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalari, otasining ismi, taxalluslar, laqablar, planeta va yulduzlarning nomlari, uy hayvonlari va qushlarga atab qo'yilgan nomlar, geografik nomlar, tashkilot va idora nomlari, gazeta va jurnal nomlari atoqli otlar sifatida o'rganiladi. Atoqli otlarning shakllanishiga mavhum otlar ham asos bo'ladi. Mavhum tushuncha, belgi, xususiyat va holat nomlari mavhum otlar deyiladi. Mavhum otlar ko'plik shaklida qo'llanmaydi: ezgulik, yaxshilik, mehr, muhabbat, baxt, quvonch kabi.

Turdosh otlar yakka predmet, shaxs yoki voqea-hodisaga nom bo'lganda atoqli otga ko'chgan hisoblanadi. Masalan: lola – o'simlik nomi, turdosh ot > *Lola* – ism, atoqli ot; qanoat – sabr, turdosh ot > *Qanoat ko'chasi* atoqli ot va hokazo.

Shu o'rinda aniq va mavhum so'zlariga e'tibor qarataylik. Mavhum: "xayolda gavalantirish, xayoliy, besaramjon. Aql bilan fikrlash orqali tasavvur etiladigan; abstrakt" [1; – B. 518.] Aniq: "nafis, nozik; ravshan, tushunarli; eshitish, ko'rish, tushunish jihatdan to'la ifodali". [2; – B. 85.] Abstrakt: "ayn. Mavhum". [3; – B. 28.] Yuqorida keltirilgan izohlardan so'ng mavhum va abstrakt so'zlari o'zaro ma'no jihatdan tengligini ko'rishimiz

mumkin. Mavhum nomlar qatoridan joy olgan juda ko'p so'zlarni godonimlar tarkibida ham uchratishimiz mumkin. Quyida berilgan misollarni ko'rib chiqaylik.

Tub mavhum otlar asosida shakllangan godonimlar: *Afsona ko'chasi, Alam ko'chasi, Diyonat ko'chasi, Dunyo ko'chasi, E'tiqod ko'chasi, Fazo ko'chasi, Haqiqat ko'chasi, Hayot ko'chasi, Ilhom ko'chasi, Intizor ko'chasi, Ehtirom ko'chasi, Iqtidor ko'chasi, Erk ko'chasi, Ko'ngil ko'chasi, Mahorat ko'chasi, Malham ko'chasi* kabi.

**Zoogodonimlar.** O'zbek tili leksik qatlamini kuzatar ekanmiz, nomlar alohida ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Zoonimlar atamasi ilk bor grek tilida paydo bo'lgan va so'nggi o'n yil ichida zoonimlarga qiziqish yanada ortdi. Tilshunoslikda zoonimlarga oid ilk tadqiqot N.K.Dmitriyev tomonidan olib borilgan. Insoniyat yaralibdiki, bir narsani ikkinchi narsadan farqlash uchun ularni o'z dunyoqarashidan kelib chiqib nomlashga harakat qilib kelgan. Xalqimizda qadimdan urug'-qabilalar, joy, o'simlik, hayvonot nomlari mavjud bo'lgan. Hayvonlar nomi bilan bog'liq nomlar-zoogodonimlarga viloyat hududidagi bu turdagi nomlar uchta guruhga ajratildi:

1. **Uy hayvonlari:** *Qoraqo'zi ko'chasi* (Jalaquduq), *Qorag'o'non ko'chasi* (Jalaquduq) kabi. **Yovvoyi hayvonlar:** *Ohu ko'chasi* (Jalaquduq), *Arslon ko'chasi* (Andijon, Ulug'nor), *Noraybo'ri ko'chasi* (Marhamat) kabi. **Qush va parrandalar:** *Cho'liqush ko'chasi* (Ulug'nor), *Humo qushi ko'chasi* (Qo'rg'ontepa), *Lochin ko'chasi* (Paxtaobod, Ulug'nor) kabi.

2. **Afsonaviy nomlar asosida hosil bo'lgan zoogodonimlar.** Ushbu tasnifning tarkibida afsonaviy hayvon va qushlar nomi ham keltirilgan. Masalan, *Duldul ko'chasi* (Jalaquduq), *Semurg' ko'chasi* (Andijon), *Humo qushi ko'chasi* (Qo'rg'ontepa) kabi.

**Orogodonimlar.** Joyning relyefi bilan bog'liq nomlar – oronimlar faqatgina tog'lar va tepaliklar emas, balki jarliklar, vodiylar, pasttekisliklar, daralar, qumliklar va boshqa orografik obyektlar nomlaridir. "Oronim (yunocha oros-tog', onoma-nom, ism)" [4; – B. 45] demakdir. Andijon viloyatining oronimlar asosida hosil bo'lgan godonimlari guruhiga quyidagilar kiradi:

**Adir:** *Adirobod ko'chasi* (Asaka); **Dovon:** *Dovon ko'chasi* (Marhamat); **Tog':** *Qorovultog' ko'chasi* (Xo'jaobod), *Balandtog' ko'chasi* (Jalaquduq); **Tosh:** *Toshtepa ko'chasi* (Asaka); **Cho'qqi:** *Cho'qqitepa ko'chasi* (Andijon); **Tepa:** *Dardoqtepa ko'chasi* (Qo'rg'ontepa), *Oqtepa ko'chasi* (Oltinko'l) kabi.

**Biror obyektga yaqinligi va geografik joylashuvi bo'yicha(mo'ljal):** *Aeroport ko'chasi, Paxtaortma ko'chasi, Oromgoh ko'chasi, Bog'cha ko'chasi, Madrasa ko'chasi, Soy ko'chasi, Stadion ko'chasi, Suvtegirmon ko'chasi, Universitet ko'chasi* kabi.

**Aziz joy nomlari asosida shakllangan godonimlar:** *Teshiktoshota ko'chasi* (Jalaquduq), *Xovuskonota ko'chasi* (Paxtaobod), *Mirpo'stin ko'chasi* (Andijon) *Aziz Deva ko'chasi* (Qo'rg'ontepa) kabi.

**Aholining ijtimoiy tarkibiga ishora qiluvchi godonimlar:** *Boyto'pi ko'chasi* (Paxtaobod), *Xo'jato'pi ko'chasi* (Asaka), *Ziyolilar ko'chasi* (Marhamat) kabi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Godonimlarda xalqning o'tmishi, urf-odatlar, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o'z aksini topgan bo'ladi. Shunga binoan, toponimiyaning tarkibiy qismlaridan biri urbanonimlarning ko'lamchasi bo'lgan godonimlar muayyan til lug'at boyligining muhim tarkibiy qismi, o'tmish voqealari darakchisi hisoblanadi. *Do'stlik, Jalabek, Soy, Poloson, Qoratut* kabi.

Aholining o'tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug', qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmish sharoiti – qanday kasb-hunar bilan shug'ullanganligi, shuningdek,

joyning biron kishiga qarashlilikini ifodalovchi godonimlar tahlili o'rinli qo'llangan. Godonimlar toponimik birliklar ichida turli ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra almashinib turishi mumkin bo'lgan birliklardan hisoblanganligi uchun vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Bu hodisa aholi yashaydigan joy nomlarining jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy hayoti, turmush darajasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 518.
2. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 151.
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясаиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 7.
4. Мурзаев Э.М. Апеллятивы в топонимах Средней Азии // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 128.
5. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 15.
6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 89.
7. Ғуломов П. Жуғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 67.
8. Большой энциклопедический словарь. М.; СПб., 2000. (Antroponimiya, Toponimiya).
9. Матвеев А. К. Апология имени // Вопр. ономастики. 2004. № 1. С. 7–13.